

## ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ASARINING INGLIZCHA TARJIMALARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

**Qodirova Irodaxon Nosir qizi**  
*University of Business and Science*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvopragmatik muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Asarda qo'llangan frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari, konnotativ ma'nolari, kommunikativ-pragmatik vazifalari hamda tarjimada ular qanday strategiyalar orqali ifodalangani o'rganiladi. Tadqiqot davomida ekvivalentlik, dinamik tarjima, deskriptiv izoh, kompensatsiya kabi yondashuvlarning samaradorligi baholanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning tarjimasi nafaqat til tizimlari o'rtasidagi tafovutlar bilan, balki madaniy kodlarning mos kelmasligi bilan ham belgilanadi. Maqola o'zbek adabiy merosini ingliz tiliga adekvat tarzda ko'chirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologik birliklar, lingvopragmatika; tarjima strategiyalari, lingvokulturologiya, ekvivalentlik, badiiy tarjima.*

**Annotation:** *This article examines the linguo-pragmatic challenges encountered in translating the phraseological units of Abdulla Qodiriy's novel "O'tkan kunlar" (Bygone Days) into English. The study analyses the cultural specificity, connotative meanings, and communicative-pragmatic functions of phraseological expressions used in the original text, along with the strategies applied to render them in English. Various translation approaches including equivalence, dynamic translation, descriptive explanation, and compensation are critically evaluated for their effectiveness. The findings reveal that the translation of phraseological units is influenced not only by structural differences between the two languages but also by mismatches in cultural codes. The article provides theoretical and practical recommendations for achieving greater adequacy in translating Uzbek literary heritage into English.*

**Keywords:** *Phraseological units, linguo-pragmatics, translation strategies, linguistic cultural studies, equivalence, literary translation.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются лингвопрагматические проблемы, возникающие при переводе фразеологических единиц романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни» на английский язык, а также предлагаются пути их решения. Анализируются национально-культурные особенности фразеологизмов, их коннотативные значения и коммуникативно-прагматические функции в оригинальном произведении, а также стратегии, применяемые переводчиками для их адекватной передачи. Оценивается эффективность таких подходов, как эквивалентность, динамический перевод, описательная передача и компенсация. Результаты исследования показывают, что перевод фразеологических единиц обусловлен не только различиями в языковых системах, но и несоответствием*

*культурных кодов. Статья предлагает теоретические и практические рекомендации по более адекватному переносу узбекского литературного наследия на английский язык.*

**Ключевые слова:** *Фразеологические единицы, лингвопрагматика, переводческие стратегии, лингвокультурология, эквивалентность, художественный перевод.*

## KIRISH

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyoti tarixida romanchilik janriga asos solgan, badiiy tafakkur taraqqiyotiga tub o‘zgarishlar olib kirgan buyuk adib sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning “O‘tkan kunlar” romani nafaqat XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, balki xalqning ma’naviy olami, urf-odatlarini, o‘ziga xos dunyoqarashi va milliy mentaliteti haqida keng qamrovli tasavvur beruvchi yuksak badiiy asardir. Mazkur roman tilining asosiy xususiyatlaridan biri undagi frazeologik birliklarning serqirra, obrazli, konnotativ jihatdan boy va lingvomadaniy ma’lumotlarga serjilaligi bilan ajralib turishidir. Qodiriyning til tanlovi, ibora tizimi, xalqona nutq unsurlaridan foydalanish mahorati asarni nafaqat badiiy-estetik, balki lingvokulturologik va pragmatik jihatdan ham o‘ta qimmatli manbaga aylantiradi.[1]

Frazeologik birliklar xalqning asrlar davomida shakllangan donoligi, hayot falsafasi, e’tiqodi va turmush tarzi haqida ma’lumot beruvchi barqaror til strukturasi sifatida, har qanday badiiy matnda milliylikning eng yorqin ko‘rinishidir. “O‘tkan kunlar”da ular personajlar ruhiyati, ijtimoiy mavqei, munosabatlari va davr muhitini ochib beruvchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Qodiriyning frazeologizmlari nafaqat ma’nodoshlik yoki obrazlilik, balki nozik kommunikativ niyat, yashirin semantik qatlam va ko‘p o‘lchamli pragmatik effektga ega. Shuning uchun ham, mazkur birliklarning boshqa tilda ayniqsa ingliz tilida adekvat va to‘laqonli ifodalanishi murakkab lingvopragmatik masala sanaladi.

Bugungi globallashuv jarayonida o‘zbek adabiyotini jahon ilmiy va madaniy muhitiga integratsiya qilish dolzarb vazifa bo‘lib, bu jarayonda tarjima faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish o‘zbek adabiy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib etishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib, tarjima jarayonida frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini to‘liq hisobga olish talab etiladi. Chunki frazeologizmlar nafaqat ma’noni, balki madaniy kodni, milliy ruhni, asarga xos psixologik va emotsional energiyani ham o‘zida mujassam etadi. Ularning noto‘g‘ri yoki yetarlicha aniqlikda tarjima qilinmasligi asarning pragmatik ta’sir kuchini sezilarli darajada susaytirishi mumkin.[2]

Ingliz tili bilan o‘zbek tilining frazeologik tizimlari o‘rtasidagi semantik, sintaktik, konseptual va madaniy tafovutlar tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi. Ayniqsa, diniy tushunchalar, tarixiy-madaniy konnotatsiyalar, urf-odatlar bilan bog‘liq iboralar, ijtimoiy statusni ifodalovchi birliklar yoki o‘zbek xalqiga xos obrazlilikni yaratadigan frazeologizmlar ingliz tilida to‘laqonli ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Bunday

hollarda tarjimon kontekstual ekvivalent, dinamik ekvivalentlik, deskriptiv tarjima, kompensatsiya kabi strategiyalardan foydalanishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun ham, “O‘tkan kunlar”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarni lingvopragmatik tahlil qilish nafaqat tarjimashunoslik, balki madaniy antropologiya, lingvokulturologiya va kommunikativ pragmatika nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhimdir.[3]

“O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan frazeologizmlar o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashning til orqali ifodasidir. Qodiriy ana shu iboralar vositasida o‘zbek jamiyatiga xos ruhiy holatlarni, ijtimoiy munosabatlar dinamikasini va milliy estetik me‘yorlarni badiiy makonda qayta jonlantiradi. “Ko‘ngli keng”, “ko‘nglidan joy olmoq”, “boshi egilmoq”, “oq yo‘l tilamoq” kabi iboralar shunchaki til birligi emas, balki xalqning ma‘naviy-madaniy tajribasini ifodalovchi konseptual birliklardir. Mazkur iboralarning ingliz tiliga tarjimasida ularning madaniy ildizlarini saqlash tarjimonning asosiy vazifasidir. Chunki frazeologizm o‘zbek kitobxonida uyg‘otadigan assotsiativ ma‘no - mehr, hurmat, hurmatsizlik, tanbeh yoki duo ohangi ingliz tilida so‘zma-so‘z ko‘chirilganda aksariyat hollarda yo‘qolib ketadi. Shu sababli tarjimondan nafaqat til kompetensiyasi, balki chuqur lingvokulturologik bilim ham talab etiladi.[4]

Frazeologik birliklar roman personajlarining nutqiy portretini yaratishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Otabekning nutqida uchraydigan madaniyatli, o‘lchovli, ziyolilikka xos iboralar uning ma‘rifatparvar, zamonaviy fikrlaydigan qiyofasini mustahkamlaydi. Masalan, “ko‘nglingizni og‘ritmay”, “biroz sabr qiling”, “iltifot qilasiz” kabi muloyim iboralar uning odobli, vazmin tabiatini ko‘rsatadi.

Kumushning tilida uchraydigan nafis, nozik, ko‘proq uyatchanlik va ayollikka xos iboralar “ko‘nglim g‘ash bo‘ldi”, “yuzi qizarib ketdi”, “qo‘lim qalqib ketdi” uning psixologik holatini shaffof aks ettiradi. Zaynabning nutqida esa rashk, gina, iztirob, shubha kabi hissiy kechinmalar frazeologik birliklar orqali ifodalanadi: “jonim kuydi”, “ichim achidi”, “ko‘nglim qoldi”.Inglizcha tarjimalarda ushbu nozik tarzda yaratilgan nutq tabiatini saqlash tarjimonning eng murakkab vazifasidir. Tarjima jarayonida iboralarning ohangi, stilistik vazni, emotsional intensivligi o‘zgarsa, personaj xarakteri ham unsiz o‘zgarib ketadi.

Frazeologizmlar badiiy matnda nafaqat ma‘noni aniqlashtiradi, balki kommunikativ vaziyatning drammatizmi, yumori, ziddiyati yoki jozibasini oshiradi. Masalan: “Yuragi hovuchlab turdi” - iztirob, xavotirning kuchli darajasini bildiradi. “G‘azab otiga mingdi” - kuchli hissiy portlashni obrazli tarzda tasvirlaydi. “Ko‘ngli yorishdi” - emotsional engillik va quvonchning semantik markazini tashkil qiladi.[5]

Tarjimada ushbu frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv salohiyatini to‘la saqlash uchun tarjimon pragmatik ekvivalentlarni topishi zarur. Ingliz tilida “his heart sank”, “his spirits lifted”, “he flew into a rage” kabi birliklar maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Biroq ular har doim ham milliy koloritni saqlab qolmaydi shuning uchun tarjimon ohangni yo‘qotmaslikka alohida e‘tibor qaratishi lozim. Ba‘zi frazeologik birliklar ingliz tilida deyarli to‘liq ekvivalentga ega. Bunday hollarda tarjimon milliy koloritsiz, ammo ma‘nodosh va pragmatik jihatdan mos keladigan iborani tanlaydi. Tarjimaning bunday turi

emotsional kayfiyatni, situatsiyaning psixologik rangini aniq ifodalaydi. Biroq bunda obrazning milliy manzarasi biroz soddalashadi, shuning uchun ba’zi tarjimonlar milliy obrazni saqlash uchun “like a mountain” strukturasi orqali qo’shimcha izohli usulni qo’llashni tanlashi ham mumkin.[6]

Ko’plab o’zbekcha frazeologizmlar ingliz tilida tayyor ekvivalentga ega emas. Bunday hollarda tarjimon iboraning umumiy ma’nosini izoh bilan, mantiqiy deskriptor orqali beradi. “Boshinga yetaman”, “I will bring severe retribution upon you.” Bu holatda semantik mazmun saqlangan bo’lsa-da, o’zbekcha iboraga xos keskinlik, og’zaki nutqning tahdid ohangi qisman yo’qoladi. O’zbek tilidagi ibora tarkibida yashirin tarixiy ijtimoiy munosabat va xatti-harakat kodesi mavjud bo’lgani sababli, tarjima to’liq pragmatik ekvivalent bo’la olmaydi.

Ba’zan tarjimon frazeologik birlikni so’zma-so’z tarjima qiladi, natijada semantik ziddiyat yoki noto’g’ri talqin paydo bo’ladi. “Ko’ngli qora”, “His heart is black” Ingliz tilida “black heart” odatda “yovuzlik, badniyatlik” ma’nosini bildiradi, o’zbek tilidagi frazeologizm esa ko’proq “g’amginlik, iztirob, ranjish” mazmunini beradi. Bunday nomuvofiqlik lingvopragmatik xatolarga olib keladi. Shu sababli so’zma-so’z tarjima frazeologizmlar uchun eng kam qo’llanishi kerak bo’lgan usullardan biridir.[7]

Frazeologizmning ma’nosi ko’pincha tilning ichki logikasi, xalq tafakkuri, tarixiy-madaniy tajribasiga bog’liq bo’lib, uni boshqa tilda qayta yaratish juda murakkab jarayondir. Masalan: “Alloh sabrini bersin” o’zbek tilida duo ohangiga ega, diniy-madaniy hodisa sifatida qabul qilinadi. Inglizcha tarjima: “May he find patience” semantik mazmunni bersa-da, diniy-estetik ohang yo’qoladi. Demak, tarjimada semantik aniqlik bilan birga konnotativ qatlamni ham saqlash kerak.

Frazeologizmlar nutqning pragmatik kuchini ko’taradi, ular tasalli beradi, tanbeh qiladi, g’azabni ifodalaydi yoki muloyimlik ohangini yaratadi. Tarjimon ushbu illokutiv niyatni aniq tasvirlashi kerak. Masalan, Kumush tomonidan qo’llanilgan yumshoq ibora ingliz tiliga neytral shaklda tarjima qilinganda uning mehribon ohangi susayadi. Bu esa personaj qiyofasida pragmatik siljishga olib keladi. Frazeologizmlar ko’pincha kuchli emotsional bo’yoqqa ega. Tarjimon ushbu energiyani yo’qotmasligi lozim. Ingliz tilidagi mos ekvivalent “Jonim kuydi”, “It broke my heart” yaxshi ekvivalent, ammo ba’zida intensivlik yetarli bo’lmaydi. Agar frazeologizmning to’liq ekvivalenti bo’lmasa, tarjimon boshqa joyda obrazli birlik qo’shishi, ohangni kuchaytiruvchi leksik vositalar bilan ishlashi, izoh vositasida milliy jozibani saqlashi kabi strategiyalardan foydalanishi mumkin. Bu yondashuv lingvopragmatik muvozanatni tiklaydi.[8]

Ingliz tilida mavjud tayyor mos birliklar tarjimaga yengillik beradi, ammo mavjud bo’lmagan holatlarda tarjimon ijodkorlik va lingvokulturologik sezgirlikka murojaat qiladi. Frazeologizm qanchalik milliy bo’lsa, tarjima shunchalik murakkab bo’ladi. Masalan, diniy tushunchalar, xalqona duo yoki la’nat iboralari ingliz tilida to’g’ridan-to’g’ri mos kelmaydi. Ingliz tilida kitobxon o’zbek madaniyati haqida yetarli bilimga ega bo’lmasligi mumkin. Shuning uchun tarjimon ba’zan izohli usullarni qo’llaydi. Tarjima sifati bevosita tarjimonning badiiy matnni his eta olishi, konnotatsiyani sezishi va pragmatik niyatni anglashiga bog’liq.



## XULOSA

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi frazeologik birliklar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy tajribasi, milliy tafakkuri, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari va dunyoqarashiga oid ko‘p qatlamli ma’lumotlarni mujassamlashtirgan noyob til birliklaridir. Ular nafaqat obrazlilikni kuchaytiruvchi badiiy vosita, balki personajlar fe’l-atvori, ijtimoiy mavqei, muhitning etnografik xususiyatlari, kommunikativ niyatlar va yashirin pragmatik ma’nolarni yetkazib beruvchi lingvopragmatik ko‘rsatkich sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida mazkur frazeologizmlarning ingliz tiliga tarjima jarayonida ko‘taradigan lingvokulturologik yukning qay darajada saqlanganini aniqlash ularning milliy, emotsional va semantik mazmuni tarjimada qanday darajada ifodalanganini yoritishga imkon berdi. Asardagi frazeologizmlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bunday birliklar tarjimasida matnni shunchaki boshqa tilga o‘tkazish emas, balki madaniy kodlarni o‘zgacha til tizimiga adaptatsiya qilish jarayonidir. Bu esa tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki sotsiokulturologik kompetentsiyasiga, tarixiy bilimiga, mentalitet farqlarini anglash darajasiga ham bevosita bog‘liq. Ayni jihatdan mazkur tadqiqot o‘zbek badiiy matnlarini ingliz tiliga tarjima qilishning nazariy asoslarini boyitadi, amaliy usullarni takomillashtiradi va kelgusida Qodiriy ijodi bo‘yicha tarjima izlanishlarini ilmiy jihatdan chuqurlashtirish uchun mustahkam nazariy zamin yaratadi.

“O‘tkan kunlar” asaridagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zbek tilining milliy o‘ziga xosliklarini, xalq madaniyatini, tarixiy-madaniy kodlarini global maydonga olib chiqish, o‘zbek adabiyotining jahon adabiy merosidagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash yo‘lida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan izlanishdir. Bu yo‘nalishdagi kelgusidagi tadqiqotlar frazeologik birliklarning semantik modeli, ularning konseptosferadagi o‘rni, tarjima strategiyalarining samaradorligi va ko‘p qatlamli madaniy konnotatsiyalarning lingvistik xarakteri kabi masalalarni yanada chuqur o‘rganishga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodiriy, A. (1926). O‘tkan kunlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.
2. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Mamajonov, Z. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi. Toshkent: Fan.
4. Karimov, N. Qodiriy romanchiligi poetikasi. Toshkent: Yozuvchi.
5. Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford: Oxford University Press.
6. Nord, C. Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application. Amsterdam: Rodopi.
7. Kustova, G. Фразеология русского языка и методы её анализа. — Москва: Академия.
8. Телия, В.Н. Фразеология как объект лингвокультурологического исследования. Москва: Наука.